AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASHDA DAVLATNING MOLIYAVIY SIYOSATI

Homidov Nuriddin Hodi o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Received: 03.09.2025
Revised: 05.09.2025
Accepted: 06.09.2025
Kalit so‘zlar:
moliyaviy siyosat, aholi farovonligi, davlat byudjeti, ijtimoiy himoya, soliqlar siyosati, iqtisodiy barqarorlik, daromadlarni taqsimlash, ijtimoiy xarajatlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlatning moliyaviy siyosati orqali aholi farovonligini ta’minlash masalalari tahlil qilinadi. Moliyaviy siyosat ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish, daromadlarni taqsimlash va iqtisodiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda davlat byudjeti, soliqlar siyosati va ijtimoiy xarajatlarning aholi turmush darajasiga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, moliyaviy siyosatni samarali amalga oshirish uchun tavsiyalar berilgan.

Jamiyatda keksalarni va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularga doimiy e’tibor berish insoniyatning paydo bo‘lishidan beri mavjuddir. Iqtisodiyot rivojlanib borar ekan, obektiv sabablarga ko‘ra ya’ni iqtisodiy va ishlab chiqarish omillar sabab (kasb kasalligiga chalinish, baxtsiz xodisalar sabab nogironlik, ishsizlik) insonlarning vaqtincha yoki doimiy mehnat qobiliyatini yo‘qotishi, daromaddan mahrum bo‘lish va bu orqali hayot darajasining pasayishiga bo‘lgan xavf ortib boradi.

Mamlakatda iqtisodiy farovonlikni ta’minlash ko‘p jihatdan aholining turmush farovonligini barqarorlashtirishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Ijtimoiy siyosatning tub asosi bo‘lgan ijtimoiy soha va ijtimoiy himoya bo‘g‘inlari aholi turmush farovonligini turli jihatlarini ta’minlashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Aholi turmush farovonligini ta’minlashda turli iqtisodiy maktab vakillari turlicha yondashuvlarni bayon qilishgan.

Aholi turmush farovonligi nafaqat zamon nuqtai nazaridan, balki makon

nuqtai nazaridan ham turli xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’kidlash lozim. Rivojlangan davlat bilan rivojlanayotgan davlatlarning hayot farovonligini ko‘rsatkichlari o‘zaro farq qilishini ta’kidlash lozim. Umuman olganda, hayot farovonligi, aholi daromadlariga nisbatan xalqaro mezonlar turli xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lsada, mahalliy mezonlar ulardan ayrim jihatlari bilan farqlanishi mumkin. Bunda xalqaro standartlar o‘rtacha ko‘rsatkich sifatida ham aks etishi mumkin. Turmush farovonligini belgilab beruvchi monetar omillarning rivojlanishi bilan birga, nomonetar omillarining ham vujudga kelishi aynan xususiy va umumiy ko‘rsatkichlar tizimining shakllanishiga olib keldi.

Ijtimoiy himoyani tashkil etishda davlatning moliyaviy mablag‘lari ma’lum mezonlar asosida aholining belgilangan qatlamiga taqdim etiladi. Ijtimoiy himoya qilishda davlat byudjetidan mablag‘larni ajratishda kam daromadli aholi qatlamlarini guruhlarga tizimlashtirish yoki minimal iste’mol xarajatlari hajmini belgilash bilan amalga oshirilishi mumkin.

O‘zbekistonda ijtimoiy himoya xarajatlari mahalliy byudjetning ijtimoiy xarajatlari tarkibidan moliyalashtiriladi va quyidagi guruhlarga mansub bo‘lgan inson (oila)larga berilishi mumkin:

2 yoshgacha va 18 yoshgacha farzandi bo‘lgan oilalarga bolalar nafaqasi bo‘lgan mablag‘lar taqdim etiladi. Bunda farzandlar sonidan kelib chiqib nafaqa miqdori tabaqalashtirilgan bo‘ladi;

Yolg‘iz bo‘lgan insonlar yoki farzandlari 18 yoshdan katta bo‘lganlar uchun moddiy yordam beriladi.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 avgustdagi “Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish hamda kambag‘allik bilan kurashish ko‘lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6277-sonli farmonida belgilab berilgan. Mazkur hujjatga ko‘ra, mamlakatimizda kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishning

yangi tartibi belgilab berildi. Mazkur hujjatning qabul qilinishi bilan ijtimoiy himoya qamrovining sezilarli oshirish nazarda tutilganligini qayd etish lozim.

Birinchidan, undan oldingi tartibda 14 yoshgacha farzandlari bo‘lgan oilalarga nafaqalar to‘langan bo‘lsa, ushbu yosh ko‘rsatkichi 18 yoshga qadar oshirilganligi.

Ikkinchidan, ijtimoiy himoya to‘lovlari muddatning 6 oydan 12 oyga qadar uzaytirilganligi bilan ko‘rsatish mumkin.

Mamlakatimizda aholi turmush farovonligini oshirishda inson kapitalini rivojlantirish ijtimoiy soha (ta’lim va sog‘liqni saqlash) doirasida jadal amaalga oshirilishi belginayotgan bo‘lsa, boshqa jihatdan ijtimoiy himoya dasturlarining ham kengayayotganligi aholi turmush farovonligini ta’minlashda muhim o‘zgarishlarni ifodalab beradi.

Ijtimoiy himoya siyosati to‘g‘risidagi ilmiy nazariy qarashlarda ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi mavjud bo‘lib, unda quyidagilarni ta’minlashni nazarda tutib o‘tadi:

- kambag‘allik va qashshoqlikning oldinii olish, ular ko‘lamini qisqartirish;
- ishsizlikdan himoyalash;
- aholi daromadlari va turmush darajasini ko‘tarish;
- aholining daromadlar va mulk bo‘yicha tabaqalari o‘rtasidagi farqlarni kattalashib ketishining oldigi olish;
- har bir ish o‘rnida ishlab chiqarish va mehnat xavfsizligini ta’minlash;
- xizmat ko‘rsatish va iste’mol xavfsizligi;
- ekologik xavfsizlik;
- jamoat tartibini o‘rnatish va jinoyatchilikning oldini olish;
- xotin-qizlar xavfsizligini ta’minlash.

Aholi farovonligini ta’minlashda davlatning moliyaviy siyosati davlat byudjeti xarajatlarini rejalashtirish bilan bog‘liq hisoblanadi. Shu boisdan,

insonlarning kambag‘allikka tushib qolish ehtimolini oldini olishga qaratilgan omillarni byudjet siyosati mablag‘lari doirasida moliyalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda qo‘shimcha ta’lim, tibbiy xizmatlar xarajatlarini moliyalashtirishni ham e’tiborga olish. Ijara uylari uchun oylik to‘lovlarning ma’lum qismini ham to‘lab berish metodlarini joriy etish, bunda ko‘chmas mulk egalarini daromad solig‘idan ozod qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirov, S. (2021). Davlat moliyaviy siyosati va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Rustamov, A. (2019). *Aholi farovonligini oshirishda moliyaviy mexanizmlar*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti.
3. Karimova, D. (2020). “Davlat byudjeti va ijtimoiy himoya tizimi.” *Iqtisodiyot va jamiyat* jurnali, 4(15), 33-40.
4. O‘zbekiston Respublikasi Soliqlar to‘g‘risidagi Qonuni (2017). Toshkent.
5. Tursunov, B. (2022). *Ijtimoiy siyosat va moliyaviy barqarorlik*. Toshkent: Jamiyat nashriyoti.
6. Jahongirov, M. (2020). “Moliyaviy siyosat va iqtisodiy barqarorlik: nazariy va amaliy jihatlar,” https://www.economics.uz